O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 20-mart | 164-11-0-Q/25 | Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyati hududida maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov ta’riflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 17-fevraldagi 01/01-56-son xati, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 23-apreldagi 03/09-01-18/1972-son xulosasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevral kungi VM-21/24-23-son (XDFU) majlis bayoni (23-son) 10-bandi ijrosini ta’minlash hamda viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona ta’riflarni belgilash va ta’riflarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6- va 21^1-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevral kunidagi VM-21/24-23-son (XDFU) majlis bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 17-fevral kunidagi 01/01-56-son xati inobatga olinsin.

3. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan maishiy va qurilish chiqindilarini hududiy poligonlarga qabul qilish va saqlash bo‘yicha majburiy to‘lov ta′riflari 2025-yil 20-martdan quyidagicha belgilansin:

a) 1 metr kub chiqindiga 18 711 so‘m (QQS bilan) miqdorida;

b) 1 tonna chiqindiga 45 416 so‘m (QQS bilan) miqdorida cheklangan ta′riflar belgilansin.

4. Farg‘ona viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Mirzayev), Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasi (Xalimbekov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (Jumanov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Primqulov), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (Malikov), shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

5. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (Sobirov) maishiy va qurilish chiqindilarini hududiy chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlarining yangilangan ta′riflarini 2025-yil 20-martdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir sanitar tozalash xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Farg’ona viloyati hokimining 2019-yil 17-avgustdagi 277-sonli qarori bekor qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**